

YENISEY BITIGLARIDA QO‘LLANILGAN SO‘Z MA‘NOLARI INTERPRETATSIYASI (Kemchik Chirgak yodgorligi misolida)

Toxir Xamzayev Saparovich

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik

Kafedra 2-kurs magistranti

Annotatsiya: O‘rxun-Yenisey bitiglarini nomi bilan ataluvchi turkiy xalqlarning yozuv madaniyatini aks ettirgan bu yodgorliklar VI-VIII asrlarga mansub bo‘lsa ham, XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelibgina dunyo tilshunosligiga ma‘lum bo‘la boshlagan. Yodgorliklardagi yozuvlarda tinish belgilarining mavjud emasligi, asrlar osha yozuvlarning katta qismi o‘qib bo‘lmas holatga kelganligi natijasida, shuningdek o‘sha davr leksikasidagi so‘zlarning hozirga kelib qo‘llanilmasligi yoki kam qo‘llanilishi yozuvlarni turlicha talqin qilinishiga va turlicha ma‘no ifodalashiga sabab bo‘lgan. Maqola turkolog olimlardan S. E. Malov, H. N. Orkun va I. V. Kormushinlarning tadqiqotlari asosida Kemchik Chirgak yodgorligidagi yozuvning qiyosiy tahlilini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Yenisey bitiglarini, O‘rxun bitiglarini, turkiy singlarmonizm qoidasi, baliq, esizim-ä, taylarim, tanlarim, tonlarim, tašru ätilti, tašaru tiläti, taš uru tikti, S. E. Malov, H. N. Orkun, I. V. Kormushin.

Yenisey bitiglarini nomi bilan ataluvchi yozma yodgorliklar Sibirning Oltoy o‘lkasi, Yenisey, Kama daryolari tevarigidan topilgan ko‘k turk yozuvli toshbitiglardir. Turkiy xalqlarga tegishli bu yodgorliklar VI-VIII asrlarga mansub bo‘lishiga qaramay, fanga XVIII asrga kelib ma‘lum bo‘la boshladi. Bu yozuvlarni birinchi bo‘lib V. Tomson o‘qigan. Keyinchalik bir qancha turkshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu borada R. Radlov, S. E. Malov, I. V. Stebleva, H. O‘rxun, T. Tekin, Najib Osim, G. Aydarov, A. Rustamov, G‘. Abdurahmonov, N. Rahmonov va Q. Sodiqovlarning xizmatlari katta.

O‘rxun-Yenisey yodgorliklaridagi yozuvning o‘qilishi 1893-yilga to‘g‘ri keladi. Bunda N.M. Yadrinsev tomonidan topilgan o‘rxun yozuvlari va unga parallel ravishda xitoy yozuvidagi matn harflar deshifrovkasini tez muddatda V. Tomsen tomonidan o‘qilishiga sabab bo‘lgan. Rus turkologi V.V. Radlov birinchi bo‘lib 1894-yilda o‘rxun yozuvlari tarjimasini, 1895-yilda esa 40 ta yenisey yozuvlari tarjimasini nashr ettirdi. Radlovning ilmiy izlanishlari va o‘zining 1908-yilgi va 1948-yilgi ekspeditsiyalariga tayanib S. E. Malov 1952-yilda yenisey yozuvlarining yig‘ma-qiyosiy nashrini e‘lon qildi. L. R. Kizlasov yenisey yozuvlarining sanasini aniqlashda tamg‘alarni asosiy manba sifatida qaragan birinchi olim hisoblanadi. U tamg‘alarning qaytarilmagani,

ya'ni qandaydir qo'shimcha belgi bilan individuallashtirilganidan kelib chiqib sanani aniqlashga muvaffaq bo'lgan. O'rxun-Yenisey belgilari yozilish usuli jihatidan german-run belgilariga mos keladi. V.A. Livshits fikriga ko'ra turkiy runik belgilarining prototipi sifatida so'g'd-kursiv yozuvi xizmat qilgan.

Yenisey bitiglarini bir qancha xususiyatlari bilan o'rxun bitiglaridan ajralib turadi. Xususan, Yenisey yodgorliklari kam qatorli yozuvdan tashkil topgan, eng yirigi 16-17 satrli yozuvlardir. Bitiglarda matn o'liklar tilidan so'zlanadi. Turkiy va boshqa xalqlar og'zaki ijodiga tegishli arxaik xususiyatlar, ya'ni boshlanma, voqea rivoji va tugallanmaning mavjudligi xususiyati Yenisey bitiglarining ko'pida mavjud emas. Yodgorliklardagi bir qancha so'zlar o'chib ketgan yoki o'qib bo'lmaydigan holatga kelgan. Shuningdek ayrim so'zlardan ma'no chiqarish mushkul. Bitiglar hukmdor tabaqaga mansub kishilarning qabrtoshlariga o'rnatilgan.

Turkiylar ishlatgan arab alifbosi asosidagi eski turkiy yozuv murakkabligi (qiyinligi), yozuv o'ngdan chapga yozilishi, unli harflarning mavjud emasligi, bosh harflarning yo'qligi kabi unsurlar bu yozuvni o'rganish uchun eng katta to'siq sifatida qaraladi. Aslida esa, qadimgi turkiy tilda ham ayni shu holatlar amalda bo'lgan. Xususan, yodgorliklardagi matnlarda tinish belgilari mavjud bo'lmagan. Undosh harflarning fonetik juftlari (barchasida emas) mavjud, qo'sh undoshni bildiruvchi shakllari, shuningdek yo'g'on va ingichka variantini ajratib ko'rsatmaydigan harf shakllari ham mavjud bo'lgan. Unli tovushlar esa yozuvda ayrim hollarda yoziladi, ayrim hollarda esa yozilmaydi. Yana bir asosiy xususiyati singlarmonizm qoidasining mavjudligi. Bu qoidaga amal qilmaslik natijasida matndagi so'zlarni noto'g'ri talqin qilish mumkin. Ayrim turkshunos olimlarning fikricha yodgorliklarda singlarmonizm qoidasidan chetlashish xolatlari ham uchraydi. Ba'zi olimlar esa singlarmonizm qoidasini "temir qonun" sifatida amal qilinganligini ta'kidlaydilar. Bizning fikrimizcha esa, bu qoidaga amal qilishga maksimal harakat qilingan, ammo ba'zi o'rinlarda singlarmonizm qoidasidan chetlashish o'rinlari uchraydi.

Yenisey yodgorliklaridagi so'zlarni to'g'ri o'qish dastlabki muammolardan bo'lsa, u so'zlarning matnda qaysi ma'noni ifodalayotganligini aniqlash keyingi muammolardan hisoblanadi. Bu ishlarning qiyinligiga sabab bo'luvchi bir qancha omillar yuqorida sanab o'tildi.

Huseyin Namik O'rkun fikricha Yenisey yozuvlari tarihi O'rhun yozuvlaridan ham qadimiyroqdir. Strahlenbergning naql qilishicha bu yozuvlarning ilk kashf qilinishi Uybat III yodgorligidir. Yenisey yodgorliklari ichida Elegesh yodgorligi eng uzun (3 metr 20 sm) yodgorlikdir.

Yenisey yodgorliklari sirasiga kiruvchi Kemchik Chirgak (Tomson bu yodgorlikni sirli va shifrni ochish uchun qiyin deb ataydi) deb nomlangan yodgorlikning old tarafidagi yozuvni bir qancha turkolog olimlar talqini misolida ko'rib chiqsak:

Birinchi qatorning o'qilishi va umumiy talqini quyidagicha:

ᠠᠷᠠᠳᠠᠮᠢᠮᠢᠨ ᠲᠢᠯᠠᠷᠠ ᠠᠰᠢᠮᠢᠨ ᠪᠢᠨ ᠠᠷᠢᠮ ᠰᠢᠵᠢᠮᠠ ᠪᠠᠰᠢᠻ ᠲᠠᠭᠢᠮ (1)

1-qatorda 30 ta runik belgi va 5 ta ikki nuqta (soʻz ajratuvchi belgi) mavjud. Bu qatordagi 7-,22-,23- harflar oʻqish uchun qiyin. 7-harfni Malov (ᠯ) - “ᠡ” deb koʻradi va mazkur soʻzni “(a)ᠡl(a)r” deb oʻqiydi. Turk olimi Oʻrkun esa bu soʻzni “q(a)l(i)r” deb oʻqiydi. Uning fikricha, oʻqish uchun qiyin boʻlgan harf, aslida, (ᠯ) - “q” harfidir. U harfning chap tarafdagi ustuni oʻchib ketgan boʻlishi mumkin degan xulosaga keladi. Agar bu harfni teskari qoʻysak (h) - “t” harfi kelib chiqadi va bu soʻzni (ᠯᠡᠯh) - “til ara” deb oʻqish mumkin boʻladi. “Til ara” soʻz birikmasi “äšim” soʻzining epiteti boʻlishi mumkin. Yoki “Är ärdämim til ara” - “erlik jasoratim til aro” (“tillarda doston” iborasi kabi “tarqalgan” maʼnosini ifodalayotgandir) deb ham tushunish mumkin.

Bu qatordagi yana bir soʻz turkshunos olimlar tomonidan turlicha oʻqilgan va turli xil talqinlarga sabab boʻlgan. Malov oʻzining “Енисейская письменность тюрков” (М.-Л., 1952.) asarida Radlovga ergashgan holda bu soʻzni “basïq” deb oʻqiydi va turk olimi Oʻrkunning “balïq” deb oʻqiganiga oʻz eʼtirozini bildiradi. Eʼtirozga sabab esa yoʻgʻon harflar doimo yoʻgʻon harflar bilan yoziladi (Singarmonizm qoidasi) degan qonuniyatning mavjudligidir. “Balïq” deb oʻqish uchun (ᠶ) - “l” harfining ham boshqa koʻrinishi (ᠵ) - “l” yozilishi kerak edi degan fikrni aytadi. Singarmonizm qoidasiga amal qilmaslik holatlarini Yenisey bitiglarining bir qanchasida kuzatish mumkin. Aynan shu soʻzdagi oxirgi harfni Malov ham Oʻrkun ham “q” deb oʻqiydilar. D. D. Vasilyev esa bu harf koʻproq (ᠰ) - “m” harfiga oʻxshashini taʼkidlagan. Turkshunos I. V. Kormushin “Тюркские енисейские эпитафии. Грамматика Текстология.” (Москва 2008) asarida Vasilyevga ergashgan holda yuqoridagi soʻzni “bälim” - “mening vodiylarim” deb oʻqiydi va oʻzidan keyingi soʻz “taḡim” - “mening togʻlarim” bilan qofiyadosh ekanligini, shuningdek qatordagi maʼnoni izohlash uchun toʻgʻri kelishini aytadi. Mening vodiylarim, mening togʻlarim deganda mening oʻlkam, qadrdon makonlarim anglamini tushunish mumkin. Shuningdek Malov “sizimä” (sizlarga) deb oʻqigan soʻzni Kormushin “esizim-ä” (essizim-a, afsuski) deb oʻqiydi.

S. E. Malov talqini: *Är ärdämim (añdar) ᠡᠯᠠᠷ ᠠᠰᠢᠮᠢᠨ ᠪᠢᠨ ᠠᠷᠢᠮ ᠰᠢᠵᠢᠮᠠ ᠪᠠᠰᠢᠻ ᠲᠠᠭᠢᠮ sizimä* (mening erlik jasoratim, qolgan qadrdonlarim (? maslaxatchilarim), mingta qahramonlarim, sizlarga, xizmatkorlarim sizlarga).

H. N. Orkun talqini: *Är ärdämim kalan äšim biᠨ ärim sizimä baliḡtaḡim sizimä* (mening jasoratim qolgan qadrdonlarim, mingta qahramonlarim sizlarga, shahardagilarim sizlarga).

I. V. Kormushin talqini: *Är ärdämim til ara äšim biᠨ ärim äsizim-ä bälim taḡim äsizim-ä* (er-jangchi jasoratim, mening sevimli xotinlarim, mingta er-jangchilarim, essizim-a! Mening vodiylarim, togʻlarim, essizim-a).

Ikkinchi qatorning o‘qilishi va umumiy talqini quyidagicha:

:ŦhYh: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: (2)

Ikkinchi satrdagi deyarli barcha harflar ko‘pchilik turkshunos olimlar tomonidan bir xil o‘qilgan. Faqatgina 3 ta harf turlicha o‘qilgan va shuning natijasida so‘zlar ham har xil talqin qilingan. Tartibi bo‘yicha 8-harf Malov tomonidan (m) - “m” deb o‘qiladi. Uning fikrica, yaxshi ko‘rinmagan va o‘qishga qiyin bo‘lgan harf (n) - “n” yoki (u) - “u” bo‘lishi mumkin. Lekin ko‘proq (m) - “m” harfining orqa qismi ko‘rinmagan shakli bo‘lsa kerak degan xulosaga kelgan va “är atim” deb o‘qigan. Aynan shu qatordagi keyingi so‘zlar talqini bahsli hisoblanadi. S. E. Malov “är atim yoq üçün yäti aşnuqî äšim tašru ätilti” (erlik (qahramonlik) nomim bo‘lmagani uchun avvalgi yetti ishım tashqi janglarda qilindi) deb o‘qigan, Kononov esa Malovning fikriga qo‘shilgan holda “tashqi janglarda” emas, tashqarida, ya’ni yurtidan tashqarida degan tuzatish kiritadi. Turk olimi O‘rkun tomonidan esa “taylarim är toyuqçin yäti aşnuqî ärim tašaru tiläti” (otlarımning temirchisi (?) yetti oldingi odamlarım ketishni xohlashdi) deb talqin qilinadi. I. V. Kormushin talqini esa ancha qiziqarli va bizning fikrimizcha nisbatan to‘liqroq hisoblanadi: “tanlarim är at ujuq üçin yäti aşnuqî äšim taš uru tikti” (to‘ng‘ichlarım qayg‘uda (vafot etgan) bo‘lganlari uchun oldingi yetti do‘stlarım (bu yozuvni) tosh bitishdi). Kormushin fikricha, Malov tarjimasidagi ikki holat shubhali hisoblanadi: Birinchidan, so‘zlovchining nutqi majhul nisbatda ifodalanishi. Ikkinchidan, matnlarda, ba‘zan, janglar soni ko‘rsatilgan, ammo qilingan ishlarning soni zikr qilinmagan. Malov tarjimasidan qoniqmagan O‘rkun ham qatorni butunligicha qayta mulohaza qiladi. “Tay” so‘zini toychoq deb tarjima qiladi, “är toyuqçin” so‘z birikmasini esa temirchi deb tarjima qiladi.

S. E. Malov talqini: *Tanlarim är atim yoq üçün yati aşnuqî äšim tašru ätilti* (Mening lagerlarım; qahramonlik nomim (oldından) bo‘lmagani uchun avvalgi yetti ishım tashqi janglarda qilingan edi).

H. N. Orkun talqini: *Taylarim är toyuqçin yäti aşnuqî ärim tašaru tiläti* (Toylarımning [temirchisi] nalbandi (?) yetti eski odamim tashqariga (ketmoqlikni) tiladi).

I. V. Kormushin talqini: *Tanlarim är at ujuq üçin yäti aşnuqî äšim taš uru tikti* (Dastlabki erlarım (bahodirlarım) qayg‘udaligi (bu dunyoni tark etgani) uchun oldingi yetti qadrđonim toshga (bu yozuvni) urdilar).

Uchinchi qatorning o‘qilishi va umumiy talqini quyidagicha:

:ŦhYh: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: >4^&: (3)

Uchinchi qatordagi 16-17-belgilarni o‘z ichiga olgan so‘z o‘qilishida har xillik bor. S. E. Malov va H. N. Orkun bu belgilarni o‘tkazib yuborishgan, tarjimada esa ko‘p nuqta belgisini qo‘yishgan. I. V. Kormushin esa *oquz* deb o‘qiydi va “essizim-a, oh-

ham hayot ne'matlarini sanash oxirgi qatorga qoldirilgan. Ya'ni tiriklik chog'ida nimalarga erishdi-yu, o'limidan so'ng nimalardan ayrilgani sanab o'tiladi. Malov *äs* so'zini Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridagi "o'lja" so'zi bilan; *yat* so'zini esa R. Radlov lug'atidagi "qurol, himoyalaniş vositasi" deb; *äg* so'zini ham Radlov lug'atidan "yoqa" deb tarjima qiladi. Orkun esa, Malov talqinidagi uchta so'zni bir so'z sifatida ko'radi va *Säytig* deb o'qiydi. Tarjimasini esa notanish va tushunarsiz so'z sifatida so'roq belgisi bilan belgilaydi. Kormushin talqiniga ko'ra *Saytäg* deb o'qiladi. Bu so'zdagi *täg* qo'shimchasi hozirgi o'zbek tilidagi "...dek, kabi" ma'nosini ifodalovchi qo'shimchadir. Shuningdek Malov va Orkundan farqli ravishda *tonim* (mening to'nim, kiyimin) so'zini Kormushin *atanim* (mening tuyam) deb o'qiydi. *Atanim* so'zidan oldingi so'z Malov va Orkun talqiniga ko'ra *aği* (xazina) *yädär* (tayyorlangan) deb o'qiladi. Kormushinning fikricha, bu so'zlarda bog'liqlik yo'q. Shuning uchun ham Kormushin *ğiydar* so'zini *qaj-üt-ar* (qaytar) so'zining fonetik va shaklan o'zgargan shakli bo'lishi mumkin deb hisoblaydi va bu so'zni "miniladigan, boshqariladigan" deb tarjima qiladi. Bitigning eng yuqori qismida yana ikkita so'z bo'lib, turkologlar fikricha beshinchi qatorning davomidir. Malov bu so'zlarni *ağışğa* (kun botarga-g'arbga) *tonim* (kiyimlarim) deb o'qiydi. Orkun ham Malov kabi o'qiydi, ammo tarjimaga ko'ngli to'lmagan holda ko'p nuqta qo'yadi. Kormushinning fikricha, tuyaning sifati bo'lib *qaşqa* (boshida oq belgisi bor) so'zi kelgan.

S. E. Malov talqini: *äs yat äg särig altunim ägrit (?) äg...m (?) aği yädär tonim* (egallangan qurol va kiyimlar, mening sariq oltinim, gilamlar ... xazinaning, mening urush (uchun) kiyimlarim [sizlardan ayrildim]).

H. N. Orkun talqini: *Säytig särig altunim ögr?č g...m aği yädär tonim* (Saydik (?) sariq oltini ... xazina ... kiyimlarim (?)).

I. V. Kormushin talqini: *Saytäg sarig altunim sägir [S+R] k...m ğiydar atanim ğaşğa atanim* (Soydagi toshlar kabi sariq oltinim. Oh, mening miniladigan (?) tuyalarim, boshida oq belgili tuyalarim).

Qadimgi turkiylar tilining jozibasi tosh bitiklarda aniq ifodasini topgan. Bundan tashqari, tosh bitiklar bir necha fanlarning ham qimmatli manbai hisoblanadi. Avvalo, ular adabiy yodgorlikdir. Ifoda usuli va janr (doston, qasida, marsiya va boshqalar) xususiyati bilan badiiy adabiyotning namunasi. Tosh bitiklar qadimgi turkiy tilni o'rganishda cheksiz ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularda turkiy qavmlarning tarixiga oid voqea-hodisalar, jug'rofiy nomlar, qavmlarning nomi va urf-odatiga doir etnografik ma'lumotlar, totemizm, ko'k tangri, moniylik kabi diniy e'tiqodlar ham o'z ifodasini topgan. Xullas, tosh yodnomalar turkiy xalqlarning adabiyoti, tili, tarixi, dini, jo'g'rofiyasi, urf-odatlarini o'rganishda g'oyat qimmatli yodgorliklardir. Muhimi, yodgorliklarni to'g'ri o'qish va o'sha zamon vaziyatidan kelib chiqqan holda to'g'ri tarjima qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Urхun-Yenisey_yozuvi.
2. Кормушин И. В. Тюркские енисейские эпитафии. Грамматика, текстология. – Москва, 2008
3. Малов С. Е. Енисейская письменность тюрков. М.-Л., 1952.
4. Содиков Қ. Эски туркий битиглар. Тошкент, 2009.
5. Содиков Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. Тошкент, 2006.
6. Содиков Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. Тошкент, 2021.
7. Содиков Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. Тошкент, 2004.
8. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент, 1982.
9. Аманжолов А. С. История и теория древнетюркского письма. Алматы, 2003.
10. Древнетюркский словарь. Ленинград, 1969.
11. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент, 1965.
12. Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. М.-Л., 1951.
13. Қаюмов А. Қадимият обидалари. Тошкент, 1972.
14. Orkun H. N. Eski türk yazitlari. Ankara, 1994.